

## TARIX FANINI O‘QITISHDA KASBIY MAHORATNING AHAMIYATI VA INNOVATSION USULLAR

**Eltazarov Aliboy G‘aniboyevich**

*Jizzax viloyati Forish tumani 21-umumiy o‘rta ta‘lim maktabining tarix fani o‘qituvchisi*

### **Annotatsiya**

*Ushbu maqolada tarix fanini o‘qitishda kasbiy mahoratning ahamiyati va innovatsion usullar yoritilgan bo‘lib, unda ushbu fanning asosiy xususiyatlari haqida so‘z boradi.*

### **Kalit so‘zlar**

*zamonaviy texnologiyalar, kasbiy mahorat, tanqidiy fikrlash, tarix.*

Bugun umumiy o‘rta ta‘lim sohasida jadallik bilan olib borilayotgan islohotlar zahirida, eng avvalo, mamlakatning noyob kapitali –shaxsning barqaror taraqqiyoti va farovonligini ta‘minlash kabi aniq maqsad yotibdi. Xalq ta‘limi tizimi oldiga qo‘yilayotgan vazifalar ijrosini ta‘minlash maqsadida davlat ta‘lim standartlari, o‘qituvchilar o‘quv yuklamalari, o‘quv dasturlari va darsliklar mazmunini tanqidiy ko‘rib chiqish, ilg‘or milliy va xorijiy tajribalarni o‘rganish, ta‘limdagi mavjud muammolarning yechimiga qaratilgan ilmiy-metodik tadqiqotlar natijalari asosida takomillashtirish zarurati belgilab berildi. Har birimiz eski mazmundagi o‘quv dasturlaridan voz kechib, innovatsion iqtisodiyot va axborotli jamiyat uchun kadrlar tayyorlash imkonini beradigan o‘qitish tizimiga o‘tishga o‘zimizni tayyorlashimiz – o‘zgarishimiz lozim. Shunga mos ravishda ta‘lim berishga yondashuvlar ham o‘zgaradi – internet va axborot texnologiyalari sharofati bilan bugungi maktab o‘qituvchilari kasbiy mahorati oshiriladi. Shu bois, o‘qituvchilar oddiy bilim beruvchilikdan, o‘qituvchi-tashkilotchilikka o‘tishlari tavsiya etiladi. Bunday davrda raqobatbardoshlik, shaxslararo munosabatlarni o‘rnata olish qobiliyati zarur bo‘lganligi sababli, bugungi bu borada zamonaviy texnologiyalar uchun tayyorlangan o‘quv-metodik resurslar mazmuni tanqidiy fikrlash, kommunikativlik, ijodiy yaratuvchanlik va hamkorlik ko‘nikmalarini, ya‘ni pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirishni inobatga olgan holda tayyorlandi va ushbu onlayn platforma barchamiz uchun dolzarb mavzularda fikr, tajriba almashish imkoniyatini yaratib berdi.

**“Tushunchalar tahlili” usuli. Bunda quyidagi jadval to‘ldiriladi.**

| Sanalar             | Voqealar |
|---------------------|----------|
| 1366-yilning bahori |          |
| 1363-yil            |          |
| 1360-1361 yillar    |          |
| 1365-yil 22 may     |          |
| 1366-1370 yillar    |          |

Bunday dolzarb maslalarga birgalikda yechim topish murakkab jarayon bo‘lib, jarayon ishtirokchilarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, metodik ta‘minlash va

ko‘maklashish, kasbiy mahoratning ahamiyati va innovatsion usullarga yo‘naltirish, boshqarish va, albatta, tizimli motivatsiyalash juda muhimdir.

### “Kim haqida gapirilyapti” usuli savollari

- \*1. Siyosiy vaziyat ular hukmronligi davrida nihoyatda keskin tus oladi. – **Nuh va uning nabirasi Nuh II.**
- \*2. Uning davrida Gaznaviylarning siyosiy nufuzi ortadi. – **Sobuqtegin.**
- \*3. Uning “Qonuni Ma’sudiy” asari sulton Ma’sudga bag‘ishlab yozilgan. – **Beruniy.**
- \*4. U o‘zining mashhur “Shohnoma” dostonini Mahmud G‘aznaviyga taqdim etgan. – **Abul Qosim Firdavsiy.**
- \*5. Uning boshqaruvi davrida davlat hududi kengayib, Sharqning eng qudratli davlatlaridan biriga aylangan. – **Mahmud G‘aznaviy.**
- \*6. Uning davrida mamlakat viloyatlari birin-ketin qo‘ldan chiqarilib, tanazzulga yuz tutgan. – **Ma’sud G‘aznaviy.**

O‘quvchilar va ota-onalarning ehtiyojlari asosida maktabning vazifalarini belgilash (aniqlashtirish), o‘quv jarayonini o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash, muammolarni yecha olish bo‘yicha hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirish, kelajakda ularning barqaror taraqqiyotini ta‘minlashga yo‘naltirilgan o‘quv reja va dasturlarni ishlab chiqish hamda joriy etish bugunning dolzarb masalasidir.

1-Tarixiy shaxsimiz-  
**Savol-zardushtiylik dini nechanchi asrda vujudga kelgan? Savol-zardushtiylik dinining payg‘ambari kim?**  
Men zardushtman Men haqimda nimalarni bilasiz?

2-tarixiy shaxsimiz  
**Savol-Zardushtiylik dinining muqaddas kitobini ayting? Savol-Avesto so‘zining ma‘nosi nima?**  
Men Ahuramazda Men haqimda nimalarni bilasiz?


3-tarixiy shaxsimiz  
**Savol-Zardushtiylik dinining muqaddas 4-unsurini ayting Savol-Zardushtiylik dinining bosh g‘oyasini ayting?**  
Men Ahrimanman Men haqimda nimalarni bilasiz?

**Savollarga javob bera olsangiz gina ularni yanatmishga qaytaramiz**

Biz pedagoglar uchun o‘z faoliyatimizga yangicha yondashuv bilan tanqidiy nazar tashlash, o‘z faoliyatimizni tubdan yaxshilashni boshlash uchun start maydonchasidir. Bunda albatta kasbiy mahoratning ahamiyati va darslarda innovatsion usullardan foydalanish yaxshi samara beradi.

O‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini muvaffaqiyatli shakllantirish, ularni hayotga tayyorlashda fanlararo integratsiyani kuchaytirish, STEAM ta‘limni samarali joriy etish maqsadida bitiruvchilarga qo‘yiladigan minimal talablar, ya‘ni ta‘lim mazmuni takomillashtirildi. Tajribali o‘qituvchilar o‘quvchi bilimini baholash jarayonida sinf jamoasi

fikriga suyanadilar va o‘quvchilarga tarbiyaviy ta’sir etadilar. Bunda o‘qituvchi sinf o‘quvchilari diqqatini faollashtiradi, o‘rtoqlarining javobiga mas’uliyat bilan qarashga o‘rgatadi. Shuningdek, o‘z bilimlarini mustahkamlashga, o‘z bilimiga tanqidiy qarashga odatlantiradi. Bu esa o‘quvchini o‘z vaqtida vijdonli, rostgo‘y bo‘lishga o‘rgatadi.



Xullas, o‘quv jarayonidagi pedagogik texnologiya – bu aniq ketma-ketlikdagi yaxlit jarayon bo‘lib, u o‘quvchining ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo‘naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir. Pedagogik maqsadning amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishish o‘qituvchi va o‘quvchining hamkorlikdagi faoliyati, ular qo‘ygan maqsad, tanlagan mazmun, uslub, shakl, vositaga, ya’ni texnologiyaga bog‘liqdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ma’rifat . “O‘rgan-o‘rgat” tadbirlar majmuasi. 2012-yil, 20-oktabr
2. Abduqodirov A. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida yangi axborot texnologiyalardan foydalanish muammolari. Uzluksiz ta’lim jurnali, 2002-y.
3. R.J. Ishmuhamedov. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. –T.: TDPU, 2004.